

## Sog'lom avlod – sog'lom kelajak

Kelajak buniyodkori va mezoni bo'lgan yoshlarning tarbiyasi qay darajada muhim bo'lsa, ularning ta'llim masalasi ham benihoya muhim. Millat tanlamas illatlardan ularni himoya qilish davr talabi.

O'zbekiston Respublikasining "Yoshlar siyosatiga oid Davlat dasturi"da belgilangan vazifalarni ijrosini ta'minlash maqsadida hamda yoshlarni giyohvandlik, alkogolizm, tamaki chekish kabi yomon illatlardan asrash, ularni sog'lom turmush tarziga jalb qilish maqsadida "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakulteti miqyosida keng qamrovli barcha bosqichlardan jami 220 nafar talabalar ishtirokida "Sport - yoshlar kamoli" shiori ostida MINI FUTBOL sport musobaqasi o'tkazildi.

Musobaqa natijalariga ko'ra, 102 – guruh jamoasi faxrli 1- o'rinni, 105 – guruh 2 – o'rinni va 302 – guruh jamoisi 3 – o'rinni egalladilar.

Faxrli o'rirlarni egallagan jamoalar darajali diplom va medallar hamda g'olib jamoa "Dekan kubogi" bilan taqdirlandilar.



**"Qishloq xo'jaligini mexnizatsiyalash" fakulteti ma'naviy - ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan  
o'rribbosari Ikrom Raximov axboroti,**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov.**